O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.

Jumanova Soliha G‘ayrat qizi, Guliston davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi
e-mail: solihajumanova908@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirishda chet mamlakatlarning tajribalarining o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Undan tashqari bu ta’limning mavjud muammolari va kamchiliklari ham ko‘rsatib o‘tiladi. Xorijiy tajribalar sifatida Finlandiya, Italiya va Yaponiyaning inklyuziv ta’limdagi jadal harakatlari o‘rganiladi. Ushbu tajribalarni o‘rganish davomida inklyuziv ta’limning asosiy omillari – o‘qituvchilar malakalarini oshirish, o‘quvchilar bilan individual ishlash, ota-onalar bilan hamkorlik kabilar aniqlanadi. Tadqiqotlar natijasida O‘zbekistonda takomillashtirilgan xorijiy tajribalardan foydalanish mumkinligi aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: inkyuziv ta’lim, O‘zbekiston ta’lim tizimi, individual yondashuv, xalqaro tajribalar, ta’limda tenglik, ota-onalar bilan hamkorlik, imkoniyati cheklangan bolalar;

USING FOREIGN EXPERIENCES IN DEVELOPING INCLUSIVE EDUCATION IN UZBEKISTAN

Abstract. this article highlights the role and importance of the experiences of foreign countries in the development of inclusive education in Uzbekistan. In addition, the existing problems and shortcomings of this education are also highlighted. As foreign experiences, the intensive efforts of Finland, Italy and Japan in inclusive education are studied. During the study of these experiences, the main factors of inclusive education are identified - improving the skills of teachers, individual work with students, cooperation with parents, etc. As a result of the research, it is determined that Uzbekistan can use improved foreign experiences.

Keywords: inclusive education, Uzbek education system, individual approach, international experiences, equality in education, cooperation with parents, children with disabilities;

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В РАЗВИТИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. в статье подчеркивается роль и значение зарубежного опыта в развитии инклюзивного образования в Узбекистане. Кроме того, освещаются существующие проблемы и недостатки данного образования. В качестве зарубежного опыта изучаются интенсивные усилия Финляндии, Италии и Японии в области инклюзивного образования. В ходе изучения данного опыта

выявлены основные факторы инклюзивного образования – повышение квалификации педагогов, индивидуальная работа с учащимися, сотрудничество с родителями. Результаты исследования показывают, что Узбекистан может использовать передовой зарубежный опыт.

Ключевые слова: инклюзивное образование, система образования Узбекистана, индивидуальный подход, международный опыт, равенство в образовании, сотрудничество с родителями, дети с ограниченными возможностями;

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.10.2021 yildagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 638-sonli qaroriga ko‘ra taddiqlangan Nizomga muvofiq inklyuziv ta’limning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

Inklyuziv ta’limning maqsadi – alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to‘siqsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o‘rta ta’lim berishni ta’minlashdan iborat [1].

Hozirgi kunda zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jaroyonida o‘sib kelayotgan yosh avlodning ta’lim olishi dolzarb masalalarda biri bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, inkyuziv ta’lim- alohida yordamga muhtoj bolalarga ta’lim berish ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. O‘zekistonda ham aynan shunday ta’lim joriy etilmoqda, lekin samaradorlikni oshirish uchun xorijiy tajribalardan foydalanish zarurati mavjud. Mazkur maqolada xorij davlatlarining inkyuziv ta’limdagi tajribalari, metodlari o‘rganiladi va milliy ta’lim tizimimizga moslashtirish tahlil qilinib, inklyuzivlik darajalarini oshirish haqidagi fikrlar ilgari suriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Inklyuziv ta’lim hozirgi globallashuv miqyosida eng dolzarb ilmiy va amaliy mavzulardan biri hisoblanadi. Xususan, xalqaro tashkilotlar – YUNESKO va YUNISEF tomonidan barcha o‘quvchilarning tengligi, shuningdek ular sifatli ta’lim olishlari va alohida yordamga muhtoj bolalar bilan individual tarzda ishlash va ularning jamiyatga integratsiyalashuvi borasidagi tavsiyalar ko‘rib chiqildi. Ilmiy adabiyotlarda ko‘proq Italiya, Finlandiya va Yaponiya davlatlarining inklyuziv ta’limdagi tajribalari va yutuqlari alohida tarzda o‘rganiladi. Yuqoridagi davlatlarning tajriblari shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’limni joriy qilish uchun davlatlar tomonidan tuzilgan qonun va hujjatlarning o‘zi kamlik qiladi, bularga qo‘shimcha tarzda ta’lim muassasalarini tashkiliy, metodik va psixologik tomondan tayyorlash lozim.

Ijtimoiy siyosatning konservativ modeliga ega mamlakatlar orasida Italiya birinchilardan bo‘lib inklyuziv ta’limni alohida ehtiyojli bolalar uchun maqbul ta’lim shakli sifatida tan oldi. Mamlakatda psixofizik rivojlanishida alohida ehtiyojli bolalarning 90 foizdan ortig‘i umumiy muassasalarda uyga yaqin sog‘lom bolalar bilan birga o‘qiydi. 1971-yilda Italiyada alohida ehtiyojli bolalarning umumta’lim maktablariga borish huquqi to‘g‘risidagi birinchi qonun qabul qilinishidan oldin ham, mamlakatning ayrim hududlarida integratsiya jarayoni allaqachon boshlangan edi. Bu psixiatriya shifoxonalari va rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun internatlar yopilgandan keyin sodir bo‘ldi. Italiyaliklar bu davrni “yirtqich integratsiya” deb atashadi, ammo sodir bo‘lgan narsa inklyuziyaga yaqinroq edi, chunki asosiy maqsad bolalarni maktab jamoasiga shunday moslashtirish ediki, har bir kishi ma’lum bir

guruhga tegishli bo‘lgan tuyg‘uga ega bo‘ldi. O‘sha paytda tafovutlar shaxsning ajralmas xususiyatlari sifatida qabul qilinishi birinchi o‘ringa chiqdi. Inklyuziv ta’limga italyancha yondashuvning o‘ziga xos xususiyati maktablarning diagnostika va terapiyani amalga oshiradigan sog‘liqni saqlash tashkilotlari mutaxassislari bilan yaqin o‘zaro hamkorligidir. Alohida ehtiyojli talabalarga o‘qituvchilar va ko‘p tarmoqli mutaxassislar tomonidan malakali yordam ko‘rsatilib, kelishilgan dasturlar asosida o‘qitilmoqda [2 , 425-426-b].

Inkyuziv ta’lim tarixida Yaponiya ta’limi juda qisqa muddat ichida alohida yordamga muhtoj bolalarni kamsitishdan barcha shart-sharoitlarni yaratishga va ularni jamiyat bilan integratsiyalashuvini ta’minlashaga ega bo‘lgan davlat hisoblanadi. Yaponiya ta’lim tizimi 1970-yillarda boshlab inklyuziv ta’limga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilarni ta’lim tizimiga kengroq tarzda kitish yo‘llari o‘ylab chiqila boshladi va 1990-yildan boshlab qonunlarga kiritila boshladi. Yaponiya ta’limida inklyuziv ta’lim maktablardan emas, maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlanadi va oliy ta’lim muassasalarigacha davom etadi. Ota-onalar farzandlari boradigan ta’lim muassasalarini bemalol tanlay oladi va bu narsa qonunda ham belgilab qo‘yilgan.

Finlandiyada inklyuziv ta’lim “Maktab hamma uchun’’ tamoyiliga asosiga qurilgan va inkyuziv ta’lim asosiy ta’lim tashkil etilishining asosiy tamoyili hisoblanadi. Bu narsalar qonuniy va ma’muriy hujjatlarga kiritilmagan faqatgina inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillarigina qonunlarga kiritilgan. Finlandiyada har qanday turdagi kamsitishlar istisno qilingan va olish hamma uchun teng shaklda belgilab qo‘yilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotlarda O‘zbekistonda inlyuziv ta’limni xorijiy tajribalar asosida tashkil qilish maqsad qilib qo’yilgan. Tadqiqotlar xorijiy tajribalarni chuqur tahlil qilib, O‘zbekiston kontekstida baholash imkonini berdi. Undan tashqari tadqiqotda taqqoslash usuli qo‘llanildi, bunda Finlandiya, Italiya va Yaponiya ta’limidagi ilmiy maqolalar, Xalqaro tashkilotlardagi hisoblar, statistik ma’lumotlar va qonunchilik hujjatlari o‘rganildi va taqqoslandi. Bundan tashqari ushbu davlatlarda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlarda inklyuziv ta’limni qay tartibda yo‘lga qo‘yilganligi ko‘rib chiqildi. Undan tashqari bu ta’limning muammolari va imkoniyatlari Mahmudova Z. va Rahimova B. boshchiligida o‘rganib chiqilgan va ko‘rsatib berilgan. Inklyuziv ta’limning muammolariga alohida yordamga muhtoj bolalarni integratsiyalsh, o‘qituvchilarning maxsus tayyorgarligi yo‘qligi va yetarlicha infratuzilmalarning yetishmasligini kiritishimiz mumkin.

Xorijiy tajribalarda inklyuziv ta’lim turlicha tahlil qilinadi. Masalan Slee va Salavitaning tadqiqotlarida ijtimoiy va siyosiy jihatlari chuqur tahlil qilngan bo‘lsa UNISEF VA UNESCO xalqaro tashkilotlarida xalqaro standartlar va siyosiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, inklyuviv ta’limni O‘zbekistonga kiritishda ma’lum baza bo‘lmaganligi uchun ham ushbu maqolada chet davlatlarning inklyuziv ta’limdagi tajribalari o‘rganildi va ta’lim tizimimizga qanday tartibda moslashtirish mumkinligi ko‘rib chiqildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida Yaponiya, Italiya va Finlandiya ta’limida inklyuziv yondashuvning samarali usullari va tashkil etishning muhim jihatlari tahlil qilindi. O‘zbekistondagi inklyuziv ta’lim normativ hujjatlar va intervyular asosida o‘rganildi.

Finlyandiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda har qanday kamsitishni istisno qiladigan va o‘quv jarayonini hamma uchun ochiq qiladigan ommaviy

inklyuziv amaliyotlar va konstruktiv inklyuziv texnologiyalar joriy etilmoqda. Bu harakatlar natijasida, alohida ehtiyojga muhtoj bolalar uchun ta’lim-tarbiya olishlari uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

Finlyandiya maktablarida inklyuziv ta’limning quyidagi shakllari mavjud:

1. Nuqsoni bor bolalarni oddiy sinflarga integratsiya qilish.

2. Doimiy va maxsus sinflarda olib boriladigan mashg‘ulotlarni aralash sinflarda o‘qitish.

3. O‘quvchilar soni har bir sinfda 25 nafarni tashkil etishi kerak.

4. Qisman ajratilgan kichik guruhlarda maxsus yordam ko‘rsatish sinfdan va undan ajralmagan holda o‘qitish shaklini tashkil etish.[4]

Finlandiya ta’limida “Maktab hamma uchun” tamoyili asosida ish ko‘riladi va o‘quvchilarning o‘z yashash joylarida qulay va majburiy tarzdagi sharoitlar yaratilgan. Finlandiyaning inklyuziv ta’limidagi asosiy e’tibor o‘quvchilarning individual ehtiyojlari, ijtimoiy xizmatlar tizimi va pedagogik texnalogiyalarga qaratilgan. Yuqoridagi model O‘zbekistonning “Individual o‘quv rejalari” ni tatbiq qilishda foydali bo 'ladi.

Yaponiya ta’lim muassasalarida esa inklyuziv ta’limning muhim xususiyati, bu – «resurs xonalari» hisoblanadi. Bu nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarning oddiy o‘quv maskanilarda o‘qish uchun mutaxassisdan maslahat olishlari mumkin bo‘lgan joy. Bunday dastur autizm tashxisi, eshitish, nutq va ko‘rishning turli xil buzilishi va hissiy kasalliklari bo‘lgan o‘quvchilar uchun amal qiladi. Kichik-kichik guruhlarda o‘qitish va resurs xonalarining ishlashidan tashqari, o‘quvchilarga individual yordam ko‘rsatadigan ba’zi o‘quvchilar uchun repetitorlar (murabbiylar) ham taqdim etiladi. O‘quvchilar uchun tarix, psixologik va ijtimoiy test natijalarini hisobga olgan holda individual o‘quv dasturlari ishlab chiqiladi. Inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun Yaponiya o‘quv maskanilaridagi o‘qituvchilar maxsus tayyorgarlikdan o‘tadilar. Nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlash qo‘shimcha muloqot ko‘nikmalari, psixologiya va tibbiy yordamni o‘rganishni talab qiladi. O‘qituvchilar ishining asl maqsadi, bu o‘quvchilar va nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarning bir-birini tushunishi, birgalikda ishlashi, bir jamiyatda to‘liq yashashi uchun tarbiyalashdir. Nogiron o‘quvchilar uchun ta’lim katta moliyaviy xarajatlarni talab qiladi, qoida tariqasida bunday o‘quvchilar uchun normal sharoitlar yaratish xarajatlarni 10 baravarga oshiradi. Xarajatlarni moliyalashtirishning asosiy qismi davlat tomonidan amalga oshiriladi. Treningni tugatgandan so‘ng, nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar haqiqiy ish imkoniyatiga ega. Ushbu toifadagi ish bilan ta’minlaydigan kompaniyalar uchun imtiyozlar mavjud. Alohida urg‘u beriladigan holat, bu – mamlakatdagi nogiron o‘quvchilarga nisbatan bo‘lgan munosabat. Jamoat joylarida ekskursiyalarda bo‘lgan o‘quvchilar nogiron sinfdoshlariga qanday qilib beg‘araz va to‘g‘ri yordam berishini ko‘rishingiz mumkin. O‘quvchilarning tashabbusi o‘laroq, ko‘pincha bunday bola uchun oilasi bilan birgalikda ta’til tashkil etiladi. Umuman olganda, Yaponiya haqiqatan ham atrof-muhitni inson ehtiyojlariga moslashtiradi. Yaponiya ta’limida barcha texnologik vositalar insonlarning ehtiyojlari uchun xizmat qiladi va bunday vostilar ancha zamonaviylashtirilgan. Yuqoridagi tajriba O’zbekiston ta’lim tizimida raqamli texnalogiyalar va texnalogik vositalarni zamonaviylashtirish imkoniyatlarini ochadi.[3, 2-3 b]

Italiya tajribasida “Integrazione scolastica” modeli asosida ish ko‘riladi va o‘quvchilar umumta’lim muassalariga to‘liq qatnashgan holda bo‘ladi. Bu modelning muhim jihatlarida biri shundaki, bunda maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan yordamchi o‘qituvchilar ham o‘quvchilar bilan ishlaydi. Undan tashqari Italiya inkyuziv

ta’limida ommaviy shahar muassasalarida (maktabgacha, maktab) o‘qituvchilar nogiron maktab o‘quvchilariga yordam berish uchun ishlaydi va sinf rahbari bilan birgalikda alohida ehtiyojli o‘quvchilarni o‘qitishning muvaffaqiyati uchun javobgardir. Yordamchi o‘qituvchi bilan birgalikda psixofizik rivojlanishning alohida ehtiyojlari bo‘lgan har bir talaba uchun uning ta'lim ehtiyojlarini, xususan, tuzatish va reabilitatsiya yordamini, ba'zi hollarda maktabdan tashqarida - tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiyada ko‘rsatiladigan individual ta'lim rejalarini tuzadi. Muhim talab shundan iboratki, agar sinfda ko‘zi ojiz yoki kar o‘quvchi bo‘lsa, butun sinf Brayl alifbosi yoki imo-ishora tilini o‘rganadi. Bugungi kunda mamlakatimiz viloyatlaridagi ta’lim boshqarmalarida turli soha mutaxassislari, maktab rahbarlari, ta’lim bo‘limlari xodimlari, jamoat tashkilotlari vakillari, zarur hollarda sog‘liqni saqlash xizmatlari mutaxassislari jalb etilgan maslahat xizmatlari faoliyat yuritmoqda. Ushbu xizmatlar xodimlari inklyuziv ta'limni tashkil qiladi, bolalarning ehtiyojlarini aniqlaydi, o‘qituvchilar va maktab ma'muriyatiga maslahat va ma'rifiy yordam ko‘rsatadi. Yuqoridagi pozitsiyadan foydalanish O‘zbekistondagi alohida yordamga muhtoj bolalarning ta’lim olishin osonlashtiradi va jamiyatga qo‘shilishini osonlashtiradi.[2]

Xulosa. Ushbu tadqiqotda Yaponiya,Italiya va Finlandiya davlatlarining inklyuziv ta’limdagi ilg‘or tajribalari o‘rganildi va ularni O‘zekiston ta’limiga qanday moslashtirish mumkinligi tahlil qilindi. Tahlil natijalarini shuni ko‘rsatadiki, chet davlatlarda inklyuziv ta’limni tashkil etish uchun maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan o‘qituvchilar va yordamchi o‘qituvchilar va aynan shu ta’lim uchun moslashtirilgan metodlar bor, eng asosiysi jamiyat bilan hamkorlik a’lo darajada yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekistonda inkyuviz ta’limni tashkil etish ma’lum hujjatlar asosida mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lsa ham amaliyotda ayrim to‘siqlar mavjud: birinchi navbatda malakali kadrlarning yetishmasligi, texnik vostilarining sustligi, metodik vositalarining cheklanganligi va jamiyatga qo‘shilishning qiyinligi. Tadqiqot davomida real holatlatlar tahlil qilinib, inklyuziv ta’limga o‘tish uchun bosqichma bosqich, tizimli va moslashtiligan yondashuvning zarurligi aniqlandi.

Tavsiyalar:

1. Italiya tajribasi asosida yordamchi o‘qituvchilarni joriy etish lozim.
2. Har bir alohida yordamga muhtoj bola uchun individual o‘quv rejasini ishlab chiqish lozim.
3. Maxsus pedagoklarning bilim va malakalarini oshirish va bu narsada ularga maxsus sharoitlarni yaratish berish kerak.
4. Inkyuziv ta’limdagi o‘quvchilar uchun moslashtirilgan metodik materiallar yaratish lozim.
5. Jamiyatni inkyuziv ta’limga tayyorlash va bu borada ishlar amalga oshirilishi lozim.
6. Yaponiya tajribalari asosida texnalogik vositalarni zamonavishlashtirish lozim.
7. Inklyuziv ta’limda olib borilayotgan ishlarni muntazam baholab boruvchi monitoring tizimini joriy qilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. 638-son. 2021-yil 12-oktabr.

2. Saidova N. Rivojlangan davlatlarda inklyuziv ta’limning rivojlanish xususiyatlari // “Zamonaviy pedagogika va psixologiyaning dolzarb masalalari” mavzusidagi konferensiya materiallari, 2024-yil 27-mart.

3. Temirov A. Inklyuziv ta’lim rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari: Yaponiya ta’lim tizimi misolida // “Nazariy va amaliy fanlardagi ustuvor islohotlar va zamonaviy ta’limning innovatsion yo‘nalishlari” mavzusidagi konferensiya materiallari, 2024-yil fevral.

4. Maxmudova Z. Inklyuziv ta’limning xususiyatlari: Finlyandiya tajribasi misolida // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2023-yil.

5. Jumaboyeva M. Inklyuziv ta’limni rivojlantirishdagi xalqaro tajriba. 2025-yil.

6. Bektoshev G‘. S., Rahmatullayev B. S. Ta’lim tizimida inklyuziv ta’limni samaradorligini oshirishning O‘zbekiston va xorijiy ta’lim tajribasi // Научный информационный бюллетень. 2025. – Toshkent, – B. 780–784.

7. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Inklyuziv ta’lim monitoringi bo‘yicha hisobot. –Toshkent: XTV, 2022.

8. Respublika Pedagogika Instituti. Ta’lim muassasalarida maxsus ehtiyojli bolalar uchun sharoitlar tahlili. – Toshkent: RPI, 2023.

9. Mahmudova Z. Inklyuziv ta’lim asoslari. – Toshkent: Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti, 2022.